



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



**TALABALARNING KASBIY TAYYORGARLIK JARAYONIDA KOMMUNIKATIV
KOMPETENTLIK VA PEDAGOGIK EMPATIYANING O'ZARO BOG'LIQLIGI**

Qo'chqarova Shoxsanam Elbek qizi

*Qo'qon davlat universiteti 13 00 02 – Ta'lim tarbiya nazariya va metodikasi (sohalar
bo'yicha) ixtisosligi 2-bosqich tayanch doktoranti:*

E-mail: shoxsanamelbekovna@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0009-0001-8994-458X>

Tel: [+998999020996](tel:+998999020996)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada pedagogik empatiya va kommunikativ kompetentlik tushunchalarining mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etilgan. Pedagogik empatiya o'qituvchining kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim psixologik-pedagogik omil sifatida asoslangan. Shuningdek, empirik tadqiqot natijalari asosida empatiya darajasi bilan kommunikativ kompetentlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik empatiya, kommunikativ kompetentlik, pedagogik muloqot, kasbiy kompetentlik, o'qituvchi shaxsi.*

Аннотация: *В статье с научно-педагогической точки зрения анализируются сущность педагогической эмпатии и коммуникативной компетентности, а также их взаимосвязь. Педагогическая эмпатия обоснована как важный психолого-педагогический фактор профессиональной компетентности учителя. На основе эмпирического исследования выявлена тесная связь между уровнем эмпатии и коммуникативной компетентности педагогов.*

Ключевые слова: *педагогическая эмпатия, коммуникативная компетентность, педагогическое общение, профессиональная компетентность, личность учителя.*

Annotation: *This article analyzes pedagogical empathy and communicative competence and their interrelation from a scientific perspective. Pedagogical empathy is substantiated as a key psychological and pedagogical factor of teachers' professional competence. Based on empirical research, a strong correlation between empathy level and communicative competence has been identified.*

Keywords: *pedagogical empathy, communicative competence, pedagogical interaction, professional competence, teacher personality.*

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar doimiy ravishda kengayib bormoqda. Bugungi kunda pedagog nafaqat yuqori kasbiy bilimlarga, balki rivojlangan kommunikativ va empatik qobiliyatlarga ham ega bo'lishi zarur. Ayniqsa,



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



pedagogik empatiya va kommunikativ kompetentlik o'qituvchining pedagogik muloqotni samarali tashkil etishida muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Hammamizga ma'lumki, ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxslar o'rtasida muloqot qilish imkoniyati kengaygani sababli shaxslararo yuzma-yuz muloqot o'rnatish keskin kamayishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida yosh avlodning yuzma-yuz muloqot qilish, ijtimoiy makonda o'zi uchun "begona" yoki "notanish" kimsalar bilan muloqot qilish layoqati cheklangandek.

Shaxslararo muloqot haqida ilmiy suhbat, maqola, tadqiqotlarni kuzatganimizda bugungi kunda tez-tez ijtimoiy (sotsial) intellekt, emotsional intellekt, empatiya kabi ilmiy atamalar qo'llanilayotganiga guvoh bo'lyabmiz. Ushbu maqolamizda empatiya atamasi haqida bir qator ilmiy gipotezalar, tadqiqotlarni ko'rib chiqamiz.

Pedagogik empatiya o'quvchi shaxsini tushunish, uning hissiy holatini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Kommunikativ kompetentlik esa pedagogning muloqot jarayonida til va nutq vositalaridan samarali foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu ikki tushuncha o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagogik empatiyaning nazariy asoslari

"Empatiya" atamasi dastlab XX asr boshlarida nemis estetikasida paydo bo'lgan bo'lib, kuzatuvchining o'zini kuzatilayotgan jismoniy obyekt bilan aynanlashtirish qobiliyatini ifodalagan. Bu hodisani o'rganishning ikki yo'nalishini ajratish mumkin: ba'zi olimlar uni obyektini his qilish qobiliyati sifatida tushunsa, boshqalari uni ruhiyatning xususiyati deb talqin qiladi.

Empatiyani o'rganish muammosi psixologiya uchun doimo dolzarb hisoblanadi. Ilmiy muammo sifatida u inson shaxsining rivojlanishi va shakllanishi masalalari doirasiga kiradi. Uni o'rganish orqali shaxsning ma'naviy-axloqiy tomonlari xususiyatlari va mexanizmlarini sifatli tahlil qilish mumkin. Empatiya asosiy ijtimoiy his-tuyg'u sifatida insonning boshqa odamning ichki dunyosini va hissiy holatini tushunish, anglash, hamda uning his-tuyg'ulariga sherik bo'lish qobiliyati deb ta'riflanadi. Empatiya qobiliyati shaxslararo munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning bu qobiliyati qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik muloqotga moyil bo'ladi va unga intiladi. Empatiya qobiliyatining rivojlanganligi mutaxassislar, ayniqsa psixolog, pedagog, tarbiyachi, menejer va shifokorlarning kasbiy faoliyati samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Psixolog uchun tushunish insonni bilish va u haqida ma'lumot olishning zaruriy unsuri sifatida namoyon bo'ladi[6].

R.Fisher asarlarida "his qilish" konsepsiyasi taqdim etilgan bo'lib, u dastlab estetik munosabatga nisbatan qo'llanilgan. Bunda sub'yekt obyekt – atrof-muhit yoki san'at asari bilan aloqaga kirishib, o'zini shu obyektga ko'chiradi. Sub'yekt o'z hissiyotlarini obyektga "qarz beradi", o'zini uning xizmatiga bag'ishlaydi[8].



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



E.Titchener empatiyani narsa va vaziyatlarda, shuningdek boshqa odamning hissiyotlari va holatlarida o'zini his qilish deb tushungan. Uning fikricha, bu jarayonning mexanizmi taqlid qilishdir [8].

Yarim asrdan so'ng, empatiya tushunchasi turli modellarda kengaytirildi, ko'plab yondashuvlarda ko'rib chiqila boshlandi va ko'p ta'riflar paydo bo'ldi. Rossiya psixologiyasiga "empatiya" tushunchasi 1970-yillarning boshida kirib keldi va asosan T.P. Gavrilovning ishlarida rivojlantirildi[9].

V.V.Znakovning fikricha, empatiya boshqa insonga nisbatan ijobiy munosabatda namoyon bo'ladi, bu uning shaxsiyatining yaxlitligini tan olishni anglatadi[10]. I.M.Yusupov empatiyani psixikaning ongli va ongsiz qismlarini bog'lovchi yaxlit hodisa sifatida ko'rib chiqadi, uning maqsadi boshqa odamning ichki dunyosiga kirishdir[11].

Empatiyani ta'riflashga bo'lgan yondashuvlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, empatiya – bu insonning boshqalarning kechinmalariga nisbatan sezgirliigi, hamdardlik va achinish shaklida namoyon bo'ladigan hissiy javobdir.

Empatiya tushunchasi psixologiyada shaxsning boshqalarning hissiy holatini anglash va unga hamdardlik bildira olish qobiliyati sifatida talqin etiladi². Pedagogik empatiya esa ushbu qobiliyatning kasbiy faoliyat bilan bog'liq ko'rinishi bo'lib, o'qituvchining o'quvchi bilan samarali muloqot o'rnatishida namoyon bo'ladi.

B.G.Zinchenko va V.P.Mesheryakovning "Katta psixologik lug'at"ida empatiya 3 ta ma'noda talqin etiladi:

1) his qilish tushunchasiga sinonim bo'lib, insonning boshqa odamlarning ichki dunyosini aqldan tashqari bilishi sifatida;

2) badiiy obyektini his qilish qobiliyatini nazarda tutuvchi estetik qobiliyat sifatida, bu estetik zavq manbai hisoblanadi;

3) insonning boshqa odamning kechinmalariga ta'sirchanligi sifatida, bu hamdardlik va boshqalar bilan birga kechirish shaklida namoyon bo'ladigan ijtimoiy, axloqiy his-tuyg'ularning bir turi bo'lib, uning asosida markazsizlanish mexanizmi yotadi [7;563].

D.Goleman va P.Ekman empatiyaning 3 turini ajratib ko'rsatadilar:

1) kognitiv empatiya, turli vaziyatlarda boshqa odamlarning ta'sirchan reaksiyalarini bashorat qilish qobiliyatini oshiradi, bu esa muzokaralar samaradorligini ko'taradi (aql-idrok, taqqoslash va analogiya jarayonlarini ishga soladi);

2) emotsional (affektiv) empatiya – o'zgalarning his-tuyg'ularini o'ziga ko'chira olishni nazarda tutadi va ruhiy yaqinlashishga yordam beradi;

3) hamdardlik empatiyasi (g'amxo'rlik) – boshqa odamlarni tushunish, ularning his-tuyg'ularini baham ko'rish va ularga ochiqchasiga yordam berish qobiliyatidir[7].

Ilmiy manbalarda pedagogik empatiya quyidagi funksiyalarni bajarishi qayd etilgan³: "o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish", "ijobiy psixologik muhit yaratish", "pedagogik nizolarning oldini olish", "ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish".



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Kommunikativ kompetentlikning mazmuni

Kommunikativ kompetensiya asosini quyidagilar tashkil qiladi: muloqotni tashkil qilish, shaxslararo muloqot ko'nikmasi; mulokotni, kontakti saqlash, teskari aloqani o'rnatish; mulokot natijalarini analiz qilish. H.Mustafayeva o'z tadqiqotida ingliz tili grammatikasini ijtimoiy-gumanitar fakultetlar o'zbek fakultetlar o'zbek guruhlar talabalar tomonidan o'zlashtirishning lingvodidaktik tamoyillari, metodik vositalari to'liq bir majmua sifatida tadqiq etgan. T.Madraximov ingliz tili so'zlashuv nutqining strukturaviy, funksional-semantik Ba pragmatik xususiyatlari kommunikativ tilshunoslik hamda qiyosiy tipologik nuqtai nazardan tahlilga oid muammolarni o'rgandi. So'zlashuv nutqining uslubiy varianti sifatida tasvirlash va tahlil qilish bilan cheklanib qolmasdan, uning sifat xarakteristikasini belgilab beruvchi omillar ham aniqlandi etno-sosiolingvistik, kognitiv-kommunikativ, paralingvistik, ruhiy-fiziologik, modallik, individual omillar turli lisoniy birliklar misolida yoritib berildi. Kommunikativ kompetensiya – bu muayyan narsalarni qo'yish va hal qilish kobiliyati aloqa vazifalari turlari: maqsadlarni aniqlash aloqa, vaziyatni baholash, hisobga olish hamkorning niyatlari va aloqa usullari (hamkorlar), yetarli strategiyalarni tanlash, aloqa muvaffaqiyatini baholash, o'z nutq xatti-harakatlarini o'zgartirishga tayyor bo'lish.

Kommunikativ kompetentlik pedagogning muloqot jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni integratsiyalashgan holda qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Uning tarkibiga lingvistik, nutqiy, ijtimoiy-psixologik va empatik komponentlar kiradi [4].

Pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlik o'quvchilar bilan samarali aloqa o'rnatish, ta'limiy axborotni aniq va tushunarli yetkazish, pedagogik ta'sirchanlikni oshirish kabi vazifalarni bajaradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogik empatiya va kommunikativ kompetentlikning o'zaro bog'liqligi

Pedagogik empatiya kommunikativ kompetentlikning psixologik asosi sifatida namoyon bo'ladi. Empatiyaga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchi bilan muloqotda ochiqlik, ishonch va hamkorlik muhitini yaratadi [5]. Bu esa kommunikativ kompetentlikning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, empatiya darajasi yuqori bo'lgan pedagoglarda muloqot samaradorligi ham yuqori bo'ladi.

Empirik tadqiqot natijalari

Tadqiqot oliy pedagogik ta'lim muassasasida tahsil olayotgan 3-4-bosqich talabalarida (n=60) olib borildi. Tadqiqotda pedagogik empatiya darajasini aniqlash uchun K.Rogers metodikasi, kommunikativ kompetentlikni aniqlash uchun maxsus diagnostik so'rovнома qo'llanildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki: empatiya darajasi yuqori bo'lgan respondentlarning 78% ida kommunikativ kompetentlik ham yuqori darajada shakllangan; empatiya darajasi past bo'lganlarda kommunikativ kompetentlik ko'rsatkichlari sezilarli darajada past bo'lgan.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Bu esa pedagogik empatiya va kommunikativ kompetentlik o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, pedagogik empatiya va kommunikativ kompetentlik o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, pedagog kasbiy kompetentligining muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Empatiyani oshiruvchi omillardan badiiy adabiyotlar o'qish, talabalar o'rtasida o'zaro sog'lom ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish orqali talabalarda o'quv motivlarini shakllantirishning psixologik jihatlari tahlil qilish ta'lim sifati va samaradorligiga ijobiy ta'sir qilishi isbotlandi. Empatik yondashuv pedagogik muloqotni samarali tashkil etish, o'quvchi shaxsining rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'raev R.X. Pedagogik mahorat va nutq madaniyati. – T.: O'qituvchi, 2019.
2. Rogers C. Empathy: An Unappreciated Way of Being. – Boston: Houghton Mifflin, 2007.
3. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. – M.: Logos, 2018.
4. Abdullaeva Q. Pedagogik kompetentlik asoslari. – T.: Fan, 2020.
5. Leontyev A.A. Psixologiya muloqota. – M.: Smysl, 2016.
6. Влияние уровня развития эмпатии на статус студента в группе <https://workspay.ru/work/54654/>
7. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. – М.: “Манн, Иванов Фервет”, 2013. – 536 с.
8. Сизикова М.В. Эмпатия как личностная черта и профессиональное качество психологов-консультантов с различным стажем практической деятельности. Дисс. канд. психол. наук. – М., 2018. – 165 с.
9. Павлина Е. В. Особенности Эмпатии у Студентов Вуза // Вестник магистратуры. 2022. №9 (132). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-empatii-u-studentov-vuza>.
10. Знаков В.В. Понимание в познании и общении. – Самара, СаиГПУ 2010. – 188 с.
11. Юсупов И.М. Психология эмпатии: теоретические и прикладные аспекты: Дисс. ... д-ра психол. наук. – СПб., 1995. – 252 с.
12. Abdukakhorovna J.M. Scientific Views on the Development of the Anthropocentric Paradigm in Linguistics //JournalNX. – 2021. – Т. 7. – №. 07. – С. 20-21.